




TIL VA ADABIYOT
TA'LIMI
KUTUBXONASI



MUTAFAKKIRLAR



ABU
NASR FOROBIY

“MUTAFAKKIRLAR”

Bolalar uchun risolalar turkumi

Nodir QOBILOV

ABU NASR FOROBIY

*O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi
Respublika ta’lim markazining Tarix fani yo‘nalishi
bo‘yicha ilmiy-metodik Kengashi nashrga tavsiya etgan*

**«TAFAKKUR» NASHRIYOTI
TOSHKENT – 2015**

72.3(50‘)
Q52

Qobilov, Nodir.

Abu Nasr Forobiy/N.Qobilov; tahrir hay’ati: U. Inoyatov va boshq. -T.:Tafakkur, 2015. - 32 b. - («Mutafakkirlar» Bolalar uchun risolalar turkumi).

BBK 72.3(50‘)

Tahrir hay’ati:

U. INOYATOV, A. XOLBEKOV, Y. ASADOV, I. ZOKIROV,
F.AXMEDOV, B. DONIYOROV, B. JOVLIYEV, A. MUXTOROV.

Bu risolada buyuk vatandoshimiz Muhammad ibn Muhammad ibn Tarxon ibn Uzlog‘ Forobiy at-Turkiy, kunyalari Abu Nasr, Sharqda “Muallimi soniy” (Ikkinchi muallim) nomi bilan mashhur bo‘lgan ulug‘ mutafakkir, ensiklopedist, faylasuf olim haqida ma’lumotlar to‘plangan.

ISBN 978-9943-372-22-1

© «TAFAKKUR» nashriyoti, 2011.

© «TAFAKKUR» nashriyoti, 2015.

...Barchamiz yaxshi tushunamizki, erishilgan bilimlarni, o‘tmishda, jumladan, o‘rta asrlar Sharqida amalga oshirilgan olamshumul kashfiyotlarni chuqur o‘zlashtirmasdan turib na ilm-fanda, na boshqa sohalarda yangi, yanada yuksak marralarni zabt etib bo‘lmaydi. Biz kelgusi faoliyatimizda ham ayni shu tamoyilga qat’iy amal qilamiz...

...Men yoshlarimizga murojaat qilar ekanman, ularga doimo: “Biz buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanishimiz, g‘ururlanishimiz kerak”, deb aytaman. Ayni vaqtda “Faqat g‘ururlanishning o‘zi yetarli emas, kelinglar, o‘zimiz ham, xuddi ular kabi, mana shu bebaho merosga o‘z hissamizni qo‘shaylik!” deb takrorlayman.

Islom KARIMOV

“O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi roli va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutqidan.

ABU NASR FOROBIY (873–950)

Ismi sharifi

Uning toʻliq ismi Muhammad ibn Muhammad ibn Tarxon ibn Uzlogʻ Forobiy at-Turkiy boʻlib, laqab yoki taxallusi Abu Nasr. Sharqda «Muallimi soniy» (ikkinchi muallim) nomi bilan mashhurdir.

Qayerda, qachon tugʻilgan?

Abu Nasr Forobiy 873-yili Aris suvining Sirdaryoga quyilish yaqinidagi Oʻror degan joyda, hozirgi Qozogʻiston Respublikasining janubida joylashgan Forob tumanida tavallud topgan.

U zot kim boʻlgan?

Islom uygʻonish davrining ilk namoyandasi, yirik mutafakkir alloma Abu Nasr Forobiy musulmon faylasuflari ichida eng avvalgilardan biridir va dunyoda Aristoteldan keyingi «Ikkinchi muallim» deb eʼtirof etilgan. Hikmat, balogʻat, falsafa, mantiq, musiqa va tib ilmi sohasida yetuk olim boʻlib, turk, arab, fors, yunon, suryoniy va boshqa 80 dan ortiq til va lahjalarni mukammal bilgan. Baʼzi rivoyatlarda keltirilishicha, u yetmishta tilda soʻzlasha olgan.

Ustozlari

Ilk taʼlimni oʻz ona yurtida boshlab, keyin Bagʻdod shahrida zamonasining mashhur olimi, faylasuf, mantiq ilmida yetuk alloma Abu Bashar Matto ibn Yunus al-Qunnoiy (IX–X asrlarda yashagan) qoʻlida davom ettiradi. Bu olim Arastuning asarlari sharhiga oid yetmishga yaqin kitoblar bitgan, jumladan, Arastuning mashhur «Poetika» asarini ilk marotaba arab tiliga oʻgʻirgan, zamonasining koʻzga koʻringan faylasuf allosmasi edi.

Shuningdek, Forobiy tib ilmini oʻrganish uchun hozirgi Suriyaning shimolida va Turkiyaning janubida joylashgan Harron shahriga, nasroniy diniga mansub Yuhanno ibn Haylon huzuriga boradi va undan tib hamda mantiq ilmidan taʼlim oladi.

Ilmiy faoliyati

Abu Nasr Forobiyning Arastu (Aristotel) asarlarini sharhlashi uni mashhur qilib, hatto «Muallimi soniy – Ikkinchi muallim» deb nom qozondi (Arastuning «Birinchi muallim» deb tanilgani ko'pchilikka ma'lum). Chunki Arastuning falsafiy asarlarini sharhlash uchun, avvalo, u egallagan ilmni egallash lozim. Forobiy «al-Maqulot» (Aytilgan so'zlar), «al-Ibora», «al-Qiyos», «al-Burhon» (Dalil-hujjatlar), «al-Jadal» (Munozara), «al-Mug'olatah» (Xato so'zlar), «al-Xatoba» (Notiqlik) va «ash-She'r» kabi yigirmadan ortiq asarlarga sharhlar yozgan. Odob-axloq bobida Arastuning «Axloq» asarini, ilmga taalluqli «Tabi'iyot Arastu» Arastuning tabiat hodisalari haqidagi asari (Fizika) va uning «al-Asoru-l-uluviyati» Oliy bitiklar hamda «Samo va olam» asarlariga sharhlar bitgan. Jumladan, Forobiy Batlimusning asarlariga ham sharhlar bitgan. U faqat yunon tilidagi asarlarni o'rganib, sharhlash bilan cheklanib qolmasdan, balki o'zi ham nafs va ilohiyotga oid ko'plab ta'lifotlar – asarlar muallifi hisoblanadi. «Aql va ma'qul» (Aql va aql doirasidagi narsalar), «Nafs», «Nafsning quvvati», «al-Vohidu va-l-vahda», «al-Javhar», «az-Zamon», «al-Makon», «Mabodiu-l-mavjudot» (Borliqning paydo bo'lishi) va «al-Muqobis» (Iqtiboslar) kabi asar va risolalari shular jumlasidandir.

Shuningdek, Jamoluddin al-Qiftiy o'z kitobida Forobiyning yetmish ikkita asari nomini keltirgan. Ibn Ali Usaybiya esa uning bir yuz o'n ikkita asarini nomma-nom sanab o'tgan. Keyingi ma'lumotlarga ko'ra, Forobiy asarlarining soni bir yuz oltmishdan ortadi. Lekin dunyo kutubxonalarida Forobiyning bizgacha yetib kelgan mavjud asarlari qirqdan oshmaydi, ularning ko'pchiligi turli nashriyotlar tomonidan nashr etilgan.

Forobiy faylasuf – donishmand bo'lish bilan birga yetuk adabiyotshunos, shoir bo'lib, ijodning bu sohasida ham uning bir qancha asarlari mavjuddir. U faqat ona tilidagi ijod bilan cheklanib qolmay, balki fors va arab tillarida ham qalam tebratib, she'rlar yozgan. Shuningdek, arab olimi ibn Usaybiyaning keltirishicha, Forobiyning she'riyat nazariyasiga oid «Kalom fi-sh-she'r va-l-qavofiy» (She'r va qofiyalar to'g'risidagi so'z) va «Maqola fi qavaniyn sinoat ash-shuaro» (Shoirilar san'atining qonunlari haqida maqola) asarlari ham bo'lgan.

Forobiy haqida so'z yuritganda uning musiqa sohasida qilgan ijodini esga olmay iloj yo'q. U musiqa sohasida o'z nazariyasini yaratib, amaliy ijod namunasini ham ko'rsata olgan. Forobiyning o'z zamonasi uchun yangilik bo'lgan musiqa asbobi – «qonun»ni yaratgani va xalq orasida dong'i ketgan mohir sozanda

hamda bastakor bo'lganligi haqida rivoyatlar bor. Forobiyning musiqa sohasida «Musiqa haqida katta kitob», «Ihso al-ulum» (Ilmlar sanog'i) asarlari hozirgacha musiqaning nazariy sohasida qo'llanilib kelinmoqda. Forobiy insoniyat tarixida birinchi bo'lib kuylarni qog'ozga yozib olish usulini kashf etgan.

Forobiy o'zining «Musiqa haqida katta kitob» asarida musiqani uch turga ajratadi. Uning fikricha, bir xil musiqa insonga huzur-halovat baxsh etadi, ikkinchi xili esa ehtiroslarni qo'zg'ab, jo'shqin qiladi va nihoyat, uchinchi xil musiqa borki, u o'yga toldiradi, fikrlashga, tafakkur qilishga majbur etadi. Shunday qilib, Forobiy musiqaning rivojlanish bosqichlarini, uning inson ruhiga u yoki bu holda ta'sir qilishini, ma'naviy oziq berib, uni yaxshi ishlarga ruhlantirishini, xursandchilik va qayg'uda odamga hamdam bo'la olishini hamda katta ishlarni amalga oshirish uchun kurashga chorlay olishini bashorat qilgan.

Forobiyning katta xizmatlaridan yana biri uning ideal, har tomonlama mukammal, saodatli jamiyat haqidagi o'ylari asosida yozgan asarlaridir. «Fozil shahar ahli qarashlari haqida kitob», «Shaharlar ustidan siyosat yurgizish» asarlari mana shunga bag'ishlab yozilganidir. Donishmand olim bu asarlarida adolatli tuzum, farovon jamiyat, odil hukmdorlar haqida so'z yuritadi. Ana shu asarning ikki nusxasi Toshkentda, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar xazinasida saqlanmoqda.

Undan tashqari, bu institutning qo'lyozmalar xazinasida Forobiyning anchagina qo'lyozma asarlari saqlanadi. Forobiyning institut xazinasida saqlanayotgan qo'lyozma kitoblari o'n sakkiztadir. «Baxt-saodatga erishuv haqida», «Falsafiy savollar va ularga javoblar», «Masalalar bulog'i», «Jism va aksidensiyalarning boshlanishi», «Aql ma'nolari haqida risola», «Yahyo an-Nahaviyning Aristotelga bildirgan raddiyasiga qarshi yozilgan raddiya», «Aristotelning «Metafizika» asari maqsadlari haqida» kabi asarlari shular jumlasidandir¹.

Forobiy hikmatlari

Daraxtning kamolga yetgani mevasi bilan bo'lganidek, baxt-saodatning mukammal bo'lishi yaxshi xulqlar bilan namoyon bo'ladi.

Kimki o'zini o'z darajasidan yuqori ko'tarsa, unday kishiga kamolot yo'li to'silib qoladi.

¹Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T.: Xalq merosi, 1993. 13-bet.



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi
<https://kitobxon.com/uz/asar/1130> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси
<https://kitobxon.com/uz/asar/1130> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию
можно найти на сайте
<https://kitobxon.com/ru/asar/1130>